Узбекистан на фоне лидеров по внутреннему туризму с результатом 0,4 млрд. занимает 121-ю позицию. В целях коренного повышения эффективности реформ, осуществляющихся в данном направлении, в январе 2019 года были утверждены Концепция развития сферы туризма в Узбекистане в 2019-2025 годах.

Узбекистан обладает огромным туристско-рекреационным потенциалом, который насчитывает 7,4 тысячи объектов культурного наследия, 209 из них в составе четырех городов-музеев «Ичан кала в городе Хиве», «Исторический центр города Бухары», «Исторический центр города Шахрисабза» и «Город Самарканд», включены в список объектов всемирного наследия ЮНЕСКО¹

Государственная политика в сфере туризма направлена на преобразование туристской отрасли в перспективе в один из локомотивов ускоренного комплексного развития регионов и их инфраструктуры, решение важнейших социально-экономических задач, увеличение рабочих мест, обеспечение диверсификации и развития регионов, повышение доходов, уровня и качества жизни населения, улучшение имиджа и инвестиционной привлекательности страны.

Исходя из приоритетов в сфере туризма на краткосрочную перспективу в предстоящие годы предусматривается активная реализация по следующим основным направлениям:

-совершенствование нормативно-правовой базы в сфере туристской деятельности, имплементация международных норм и стандартов, направленных на создание благоприятных условий для развития туристской отрасли


¹ КОНЦЕПЦИЯ развития сферы туризма в Республике Узбекистан в 2019-2025 годах



- развитие инфраструктуры туризма и сопутствующей инфраструктуры во всех регионах республики с учетом потребностей и запросов туристов
- развитие транспортной логистики, расширение внешних и внутренних маршрутов, повышение качества транспортных услуг
- принятие комплексных мер, предусматривающих снижение влияния сезонного фактора путем диверсификации туристского продукта и услуг, ориентированных на различные сегменты туристского рынка
- развитие внутреннего туризма, обеспечивающего стимулирование активности субъектов туристской деятельности, ориентированных на удовлетворение потребностей в туристских услугах внутри республики.

Таблица №1

Количество перспективных для внутреннего туризма районов и городов Узбекистана в разрезе областей (ед.)



За 2019 год республику посетило более 4,3 млн иностранных туристов. Это на 26,7 процента больше, чем за аналогичный период прошлого года (3,4 млн. туристов). По результатам экспорт туристских услуг составил 854,5 млн долларов. По сравнению с аналогичным периодом прошлого года (666,8 млн. долларов) экспорт туристских услуг увеличился на 28 процентов.

Основной поток – 84,8% иностранных посетителей в Узбекистан приходится на соседние страны (Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Туркменистан). Доля же посетителей из других стран СНГ составляет 7,7%, а из дальнего зарубежья – 7,5%. Рост потока туристов отражается не только в количестве прибывающих туристов, но и в росте количества объектов, обслуживающих туристов.

Таблица №2

Количество туристов в разрезе месяцев 2018 - 2019 гг. (тыс. чел.)





В разрезе месяцев, наибольшее количество прибытия иностранных туристов приходится на август – 692,2 тыс. человек. Вместе с тем, по сравнению с аналогичным периодом предыдущего года резко выросло количество прибывающих туристов в январе и феврале. Так, в январе количество прибывших туристов по сравнению с аналогичным периодом 2018 года выросло на 64% (с 266,2 тыс. до 437,2 тыс.), в феврале – на 48% (с 264,9 тыс. до 393,5 тыс.)

Инфраструктура туризма в Узбекистане требует также комплексного совершенствования и поднятия до уровня международных стандартов. Туристический пакет формируется из основных, дополнительных и сопутствующих туристических услуг. При этом, опыт формирования турпакетов показывает определенные недостатки:

- качество, предоставляемых основных услуг не соответствует международным стандартам.

- при формировании туристического пакета сегодня для туристов очень мало услуг может быть предложено дополнительно, т.е. практически отсутствует рынок дополнительных и сопутствующих услуг, хотя в странах с развитым туризмом перечень их достигает до 500.

- некоторые составляющие туристической инфраструктуры не достаточно развиты или не представлены совсем.

- между субъектами инфраструктуры нет необходимой координации.

- не достаточно активна популяризация и реклама туризма за рубежом, не представлены новые бренды.

- со стороны органов местной власти не уделяется должного внимания развитию туристической инфраструктуры.

- существенные недостатки имеются в подготовке, переподготовке кадров,

Компания “Узбектуризм” внесла и предложила разработать проекты по развитию экотуризма с целью увеличения и развития внутреннего туризма. Успешная реализация задач в этих направлениях позволит расширить сферу туристических услуг, которая займет достойное место в экономике.

Активное развитие различных видов туризма в Узбекистане позволяет повысить привлекательность страны для иностранных туристов. Знакомство с культурой, обычаями и традициями народов Узбекистана делает путешествие интересным и приятным, позволит расширить кругозор иностранных гостей. Оригинальные блюда узбекской кухни и традиционное восточное гостеприимство также вызовут массу положительных эмоций.

Список использованных литературы:

1. Закон Республики Узбекистан от 20 августа 1999 года № 830-I «О туризме». // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1999 г., № 9, ст. 227.

2. ИКТ как фактор развития сферы туризма в Узбекистане. Журнал «infoCOM.UZ», 19 ноября 2016 года.

3. Развитие туризма в Узбекистане: проблемы, международное сотрудничество, перспективы. Научный проект «Эволюция национальной государственности Узбекистана». www.uzstathood.uz

4. <https://uzbektourism.uz/ru/newnews/view?id=813>



YURAKNING TUZILISHI VA AHAMIYATI

*Aslonova Rahima To'layevna
Mamurova Robiya To'layevna
Navoiy shahar 6-son umumta'lim
maktabi biologiya fani o'qituvchilari*

Annotatsiya: Mazkur maqolada odam organizmining eng asosiy a'zosi bo'lgan yurak, uning tuzilishi, organizmdagi ahamiyati va yurak faoliyati bilan bog'liq a'zolar haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: yurak, organizm, bo'lmacha, klapan, qorincha, qon, tomir, vena, aorta, kapilyar, limfa, mushak, to'qima.

Yurak odam organizmining eng muhim azolaridan biri hisoblanadi. Yurak to'rt kamerali a'zo bo'lib, ko'krak qafasining chaproq qismida joylashgan. Uning uchi pastga va oldinga yo'nalgan bo'lib, yurakning asosi yuqorida va bir oz orqaroqda joylashadi.

Yurak 2 ta bo'lmacha, 2 ta qorinchadan iborat. Bo'lmachalar va qorinchalar orasida klapanlar mavjud. O'ng tomonida uch tabaqali klapanlar, chap tomonda ikki tabaqali klapan bo'ladi. O'ng bo'lmachaga yuqorigi va pastki kovak venalar ochiladi. Undan tashqari yurakning xususiy venasi ham shu joyga ochiladi. O'ng qorinchadan qon o'pka poyasiga yo'naladi. O'pka poyasi teshigi soxasida, yurak ichki qavatining o'simtalaridan hosil bo'lgan klapanlar joylashadi. Klapan qonni qorinchaga qaytishiga to'sqinlik qilib o'pkaga yo'nalishini ta'minlaydi. Chap bo'lmachaga o'pka venasi quyiladi. Chap qorinchadan esa aorta qon tomiri boshlanadi. U erda yarim oysimon aorta klapani joylashadi.

Yurak devori 3 qavat mushakdan iborat: tashqi- perikard, visseral- epikard, o'rta-miokard yurak qorincha va bo'lmachalar alohida-alohida mushak guruxlaridan tuzilgan, shu sababli ular boshqa-boshqa qisqaradi. Qorinchaning tashqi va ichki qavatida bo'ylama mushaklar, o'rta qavatida halqasimon mushak joylashgan.

Yurak ichki yuzasini ya'ni endokardni biriktiruvchi to'qima hosil qilgan. Chap bo'lmachaning bo'shlig'iga 4 ta o'pka venasi ochiladi. Yurakning chap tomoni mushaklari qalin bo'lib, biriktiruvchi to'qima bilan birikib turadi. Yurak kameralari orasidagi to'siqlar sohasida biriktiruvchi to'qimalar pishiq plastinkalar hosil qiladi va ular mushaklar uchun o'ziga xos tayanch vazifasini bajaradi.

Bo'lmacha va qorincha mushaklari fibroz to'qimali halqalar bilan ajralib turadi. Miokard qavati bir necha guruh mushak to'qimalaridan hosil bo'ladi. Ular yo'nalishiga ko'ra qorinchalarning o'zida 3 guruhga ajraladi: tashqi- qiyshiq, o'rta- halqasimon, ichki- bo'ylama mushak tutamlari bo'ladi. Tashqi qavatga mushak guruhlari yurakning ichiga girdobsimon burilib, ichki qavat mushaklariga davom etadi. Qorinchalar oraligidagi to'siqning ko'p qismi mushakdan, kamroq qismi paylardan tashkil topgan parda qismini hosil qiladi.

Yurakning o'tkazuvchi yo'llari. Yurak bo'lmacha va qorinchalari alohida tuzilmalardan tashkil topgan bo'lishiga qaramay, ularning o'tkazuvchi yo'li Purkine tolalari yordamida birlashib turadi.

1. Sinus bo'lmacha tuguni yurakning o'ng qulog'i bilan yuqori kovak venasi o'rtasida epikard ostida joylashgan. Bu butun yurak bo'lmachalarining muskul tolalari va artioventrikulyar tugun bilan tutashgan bo'lib, bo'lmachalarning qisqarish ritmini tartibga solib turadi.

2. Artioventrikulyarlar tuguni yurakning o'ng bo'lmachasi devorida joylashgan bo'lib, qorinchalarga bo'lmacha-qorincha tutami yoki Giss tutami nomi bilan kiradi. Giss tutami qorinchalar orasidagi to'siq orqali pastga qarab yo'naladi va 2 ta oyoqchaga bo'linadi, oyoqchalar har ikkala qorincha endokardi ostiga joylashib, mushak qavatiga Purkine tolalari bo'ylab tarqaladi.

Arteriya va venalar orasida mikroskopda ko'rish mumkin bo'lgan mikrotomirlar joylashgan. Ularning eng maydasi kapillyar deyiladi. Organizmda qon yopiq doira ichida harakat qilib, katta va kichik qon aylanish doirasi tafovut etiladi. Katta qon aylanish doirasi yurak bilan a'zolar orasidagi qon haraktini ta'minlab, yurakning chap qorinchasidan aorta bo'ylab boshlanadi va o'ng bo'lmachaga yuqorigi hamda pastki kovak venalari sifatida yakunlanadi. Kichik qon aylanish doirasi esa yurakning o'ng qorinchasidan o'pka arteriyasi nomi bilan boshlanib, o'pka qon tomirlari ishtirokida, o'pka venasi nomi bilan chap bo'lmachada yakunlanadi.

Qon tomirlari a'zodan tashqarida joylashgan va a'zo ichida yo'naladigan qismlarga bo'linadi.



Bu bo‘linish nisbiy bo‘lib, asosan qon tomirlar uzluksiz bir-biriga davom etadi. Arterial tomirlar birin-ketin mayda tomirlarga bo‘linadi: nixoyat eng mayda arteriolalar hosil bo‘lib, ular devorida bir qavat mushak hujayralar bo‘ladi. O‘z navbatida prekapilyarlarga bo‘linadi. Prekapilyar esa ko‘plab kapilyarlarga bo‘linadi. Kapilyar devorida mushak hujayrasi uchramaydi, ular faqat bir qavat endoteliy hujayrasidan tuzilgan bo‘ladi. Kapilyar postkapilyarni hosil qilib, ular esa o‘z navbatida venulaga aylanadi. Kapilyar devori orqali kislarod va oziq moddalar qondan a‘zo to‘qimalarga o‘tsa, karbonad angidrid va modda almashinuvi natijasida hosil bo‘lgan moddalar qonga o‘tadi. O‘pka kapilyari esa aksincha karbonat angidridni chiqarib, kislorodni qabul qiladi. Buyrakning birlamchi kapilyari esa modda almashinuvi natijasida hosil bo‘lgan moddalarni chiqaradi. Kapilyar orqali ichki sekretiya bezlari ishlab chiqargan garmonlarni kerakli a‘zo va to‘qimalarga olib borilishi natijasida organizmning bir butunligi saqlanadi.

Barcha kapilyarlar bir vaqtda ishlamaydi, ular funktsional jihatdan 3 guruhga bo‘linadi:

1. Ishlab turgan kapilyar, bunda qonning barcha elementlari oqadi.
2. Plazmatik kapilyar, bunda faqat qon zardobi oqadi.
3. Yopiq kapilyar, ya’ni ishlamay turgan kapilyarlar.

Limfa tizimi. Limfa tizimi qon tomirlar sistemasiga qo‘shimcha bo‘lib, kapilyarga so‘rila olmaydigan moddalarning to‘qima va hujayralaridan chiqarib turadigan qo‘shimcha tomirlar tizimidir. Limfa to‘qimalari qonning shaklli elementi bo‘lgan limfotsit ishlab chiqaradi. Limfa tugunlarida hosil bo‘lgan limfotsit qo‘shilib tugunlardan chiqib ketuvchi tomirlardan o‘tadi. Olib chiqib ketuvchi limfa tomirlarining miqdori kamroq lekin diametri katta bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Axmedov «Odam anatomiyasi».
2. B. Aminov, T. Tilavov, O. Mavlonov Odam va uning salomatligi darslik.
3. www.med.uz



BALIQ MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA HOVUZ BALIQCHILIK XO'JALIKLARINING AHAMIYATI

Aslonova Shahnoza Ali qizi
Navoiy viloyati Navoiy shahar 20-umumiy o'rta
ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi
Elektron pochta: aslonovashahnoza1@gmail.com
Telefon raqam: +998887977745

Annotatsiya: Hozirgi zamon talabi hovuz baliqchiligini yanada kengaytirish va baliq mahsulotini ishlab chiqarishni jadallashtirish hamda yangi texnologiyalardan foydalanishdir. Intensiv texnologiya esa baliqchilik xo'jaliklari uchun qulay bo'lib, kelajakda fermerlar daromadi yanada oshishini taminlaydi.

Kalit so'zlar: hovuz baliqchiligi, intensiv texnologiya, kichik o'stirish hovuzlari, osetr

Inson hayotida organizmni to'liq qiymatli oziq moddalar bilan ta'minlashda oqsil, uglevod, yog', vitaminlar, minerallardan fosfor, temir, kalsiy, mikroelementlar muhim hisoblanadi. Bu moddalar baliq mahsulotlarida yetarlicha mavjud. Baliq go'shti yuqori biologik qiymatga ega bo'lib, parhez xususiyati ahamiyatli afzalliklarga ega bo'lgan ozuqa hisoblanadi.

Respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda faqatgina uning miqdor ko'rsatkichigina emas, balki salomatligini ta'minlovchi ko'rsatkichga ham alohida e'tibor berilmoqda. Insonlarning hayvonot dunyosi hisobiga qabul qiladigan oqsillarning 18—20 %i suvda yashovchi organizmlarga, asosan, baliqlarga to'g'ri keladi. Baliq go'shti tarkibida to'yimli moddalar mavjud bo'lgan holda ularning odam organizmida hazm bo'lish darajasi yuqoridir.

Mamlakatimizda, ayniqsa, hovuz baliqchiligini rivojlantirishning katta imkoniyatlari bor. Respublika va viloyat miqyosida baliqchilikni rivojlantirish va aholini baliq mahsuloti bilan ta'minlash uchun suv ombori, ko'llar, shu jumladan qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz joylardan, bundan tashqari kanallar, zovurlar va suv tashlaydigan joylardan baliq yetishtirish uchun foydalanish mumkin. Shuningdek, tabiiy suvliklarni baliqlashtirish va baliq bilan boyitishga butun mamlakatning diqqat e'tibori qaratilgan.

Hovuz baliqchilik xo'jaligi – baliqlarni hovuzlarda (sun'iy havzalarda) urchitish, boqish, tabiiy suv havzalari uchun baliq chavoqlari hamda xalq iste'moli uchun tovar baliq yetkazib berish bilan shug'ullanadigan xo'jalik. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Hovuz baliqchiligini tashkil qilish va uni joylashtirish uchun nima qilish kerak?

Birinchi, qulay joy tanlash kerak. Tanlangan joy qiyaroq bo'lib, suvni chiqarish oson bo'lsin, suv u yer – bu yerda to'planib turmasin. Suv to'liq chiqib ketishi lozim. Hovuzni tayyorlash uchun ko'p mehnat sarflanmasin.

Ikkinchi, hovuz manbasi (zovur, kanal) ga yaqin bo'lishi kerak. Suv yil davomida bo'lsin. Suv borligiga ishonch bo'lishi, hovuzni suvga to'ldirish, suv kirib-chiqib turishiga ishonch komil bo'lishi darkor. Suv manbasi (zovur, kanal)ga nisbatan yuqoriroqda bo'lishi lozim. Suvning erkin harakati bilan hovuz qiyinchiliksiz to'lsin.

Uchinchi, suv sifati ham asosiy omil hisoblanadi. Suvni sifati yaxshi bo'lishi, haddan tashqari sho'r, rangi, hidi bo'lmasligi, ta'miga e'tibor berish kerak. Agarda hovuzga begona yovvoyi baliq kirish xavfi bo'lsa, darhol suv kiradigan joyga ixota moslamalari (setka) qo'yiladi. Begona baliq kirishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ko'lmak va shag'alli joy bo'lsa, suv to'xtamaydi – filtratsiya kuchli bo'ladi. Bunday hovuzlarda suv turmaydi. Hovuz unchalik katta bo'lmagan qiyalikda joylashgani ma'qul. Suv hamma vaqt bo'lishi uchun artezian quduq yoki skvajinadan suv chiqarib, bundan foydalansa ham bo'ladi. Bu suv maxsus hovuzlarga olinib, xlorella, ssenodesmus va boshqa mikroskopik o'simlik o'stirilib, baliq uchun yaroqli suvga aylantiriladi. So'ngra hovuz suvi gidrokimyosi tahlil qilinib, uning yaroqliligi aniqlanadi.

Bundan tashqari intensiv texnologiyadan samarali foydalanish maqsadida mulk egasi dala shiyponida yoki kanal yoqasidagi paxta dalasi yonida 15-20 mln so'm atrofida mablag' sarflab, 15 kub metr sig'imli, suv doimo aylanib turadigan temir yoki beton basseyn qurilishi talab etiladi. Bunday usulning afzalligi shundaki, unda suv ushlab turilmaydi. Kanaldan dalaga kelayotgan suv basseyn orqali o'tib boraveradi. Bu usul ekin maydonlaridagi hosildorlikni oshirish bilan



birga, fermerning o'zi oilasi uchun kerakli miqdorda (1 tonnagacha) baliq yetishtirishida qo'l keladi.

Yangi texnologiya yirik baliqlar yetishtirishda ayniqsa qo'l keladi. Hozir yurtimizda ana shunday toifadagi qimmatbaho baliq turlarini ko'paytirish maqsadida Baliqchilikni rivojlantirish ilmiy – tadqiqot markazi tomonidan Rossiya Federatsiyasidan oqar va sho'rlangan suvli havzalarda rivojlanadigan, tez moslashuvchan osetr chavoqlari olib kelinmoqda. Mazkur baliq jahon bozorida xaridorgir bo'lib, qiltanog'i yo'qligi bois qayta ishlash imkoniyatlari ham kengroq. Bu turdagi baliqlarni boqish fermer uchun ham qulay. Jumladan, har bir mulk egasi g'alla ekib, undan bug'doy oladi. Bug'doyga tegirmonda ishlov berilgach, undan chiqqan chiqindilar ikki kun suvda saqlansa, baliq uchun juda yaxshi ozuqa bo'ladi.

Baliqchilikda suv havzalari (hovuzlar) o'lchamlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ancha katta suv havzalariga qaraganda birmuncha kichik hovuzlarda baliq o'stirishning qulay tomonlari mavjud. Ya'ni, kichik o'stirish hovuzlarida (0,5-2,0 ga) baliq va chavoqlarini oziqlantirish, nazorat qilish hamda ularning kushandalaridan himoya qilish ancha ason.

Baliqchilik sohasi bo'yicha ish boshlamoqchi bo'lgan xavaskor fermerlar uchun dala shiyponlari oldida mavjud bo'lgan kichkina hovuzlarda baliq boqish uchun ishni nimadan boshlash kerakligini tushuntirish maqsadida quyidagilar tavsiya qilinadi.

1. Agar hovuzlar paxta, g'alla yoki boshqa qishloq xo'jaligi dalalarini sug'orishda foydalanadigan suvlarni aniq bir joyda yig'ish imkoniyati bo'lsa, bu joylar yaxshilab tayyorlanib, so'ngra suv bilan to'ldirilsa bo'ladi. Hovuz suvi to'liq almashinib turishi kerak. Sug'orishda foydalanadigan daryo suvlari oziqalarga ancha boy bo'lib, bu suvlarda baliq boqish ko'p sarf-xarajat talab qilmaydi. Baliqchilik uchun mo'ljallangan hovuzlar dalalarning meliorativ holatiga zarar yetkazmaydigan va sizot suvlar sathini ko'tarib yubormasligi kerak. Bu hovuzlarda oq amur, do'ngpeshona va karp kabi ovlanish ahamiyatiga ega bo'lgan baliq turlarini yetishtirish tavsiya etiladi.

2. Intensiv texnologiya esa baliqchilik xo'jaliklari uchun qulay bo'lib, kelajakda fermerlar daromadi yanada oshishini taminlaydi. Ushbu usulda dala shiyponi yoki kanal yoqasidagi ekin dalasi yonida 0.1, 0.2, 0.3 ga sig'imli, suv doimo aylanib turadigan hovuz quriladi. Buning afzalligi shundaki, kelayotgan suv hovuz orqali ekin maydonlariga o'tib ketaveradi. Bunday suv ekin hosildorligini oshirish bilan birga, fermerga o'z ehtiyojiga ko'ra hovuzda baliq yetishtirish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida baliq yetishtirishni oson quriladigan kichik hovuzlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlangich sarf-xarajatlarini kamaytirish va ularni samaradorligini oshirish uchun imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haqberdiyev P.S. "Umumiy ixtiologiya (Ixtiopatalogiya)" Toshkent "Iqtisod –Moliya" 2013 y
2. Husenov S.Q., Niyozov D.S., Sayfullayev G'.M. "Baliqchilik asoslari". Buxoro, 2010 y.
3. Jumaboyev B.Ye, Aslonova Sh.A "Hovuz baliqchilik xo'jaliklarini tashkil qilish" Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy axborotnomasi 4(8) 2016 y



BIOLOGIYA DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING O'RNI.

Nizomova Navbahor Xalimovna
Buxoro viloyati Qorovulbozor tuman 1-maktab
biologiya fani o'qituvchisi tel: +998914416541

Anotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda o'quvchilar bilim samaradorligini oshirish maqsadida yangi innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tayanch iboralar: Innovatsion texnologiya, aqliy hujum, yuksak va tuban o'simliklar, lishayniklar

Bugungi kunda ta'limning bosh maqsadi har tomonlama kamol topgan, jamiyatda ro'y beradigan ijtimoiy iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy jarayonlariga moslashgan ta'lim va kasb hunar dasturlarini puxta ongli ravishda o'zlashtirgan, jamiyat va davlat, oila oldidagi o'z fuqoroligini his etadigan fuqoralarni tarbiyalash hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarga bilim berish jarayonida ularni fikrlashga, mustaqil izlanishga yo'naltiriladigan har hil usullar va o'qitish vositasidan samarali foydalanish muhimligini keltirib chiqaradi. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotda joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchi, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Metodlar asosida o'tilgan dars an'anaviy darslardan ko'ra yaxshi samara beradi. O'quvchining anglash qobiliyati va o'qitishning samaradorligini oshirish uchun biologiya darslarini didaktik uslublar bilan boyitish mumkin. Ta'lim samaradorligini oshirishda yuqorida ko'rsatilgan pedagogik texnologiyalarning ahamiyati shundaki, ta'limning markazida o'quvchi turadi, o'qituvchi esa tashkilotchi va mazmuni to'ldiruvchi vazifasini bajaradi. Men o'z darslarimda quyidagi interfaol metodlardan foydalananman:

“Aqliy hujum” usuli.

Bu usulni barcha fanlardan samarali qo'llash mumkin. O'qituvchi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mavzularning har biriga doir 15 tadan qisqa va aniq savollar tuzib chiqadi. Mavzular 8-10 ta bo'lishi mumkin. Sinf o'quvchilarini 8-10 ta guruhga ajratib, har biriga savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. 10 daqiqa savollarga tayyorlanish davomida mustaqil tanaffus e'lon qilinadi. Mavzular va guruhlarni birin ketin muayyan tartibda joylashuvi zaruriy shartdir. Masalan: 9-sinf biologiya darslarida quyidagicha foydalanamiz. I-guruh- tirik organizmlarning o'ziga xos xususiyatlarga tayyorlansa II-guruh xayotning xujayrasiz o'shakllari, III-guruh xayotning hujayraviy shakllari, IV-gurux tiriklikning tuzilish darajalari. V-guruh o'simliklar dunyosi, VI-guruh zamburug'lar dunyosi, VII-guruh lishayniklar, VIII-guruh yuksak va tuban o'simliklar, IX-guruh simbioz organizmlarining xilma-xilligi haqida, X-guruh pichan tayoqchasi va bakteriyasi haqida va hokazo. Maxsus tayyorgarlik ko'rilgandan so'ng, o'qituvchi har-bir guruhdan xoxlagan o'quvchini chiqarib, 15 ta savol-javob talab qiladi. Aqliy hujum qisqa muddatda o'tkazilib yakunlanadi.

”Domino” usuli.

Bu usulni biror bob yoki bo'lim yuzasidan o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilar atama yoki biologiya faniga oid so'zning oxirgi harfiga keyingi so'zni bog'laydi. Masalan: Amyoba-askarida-ayiq-qo'ng'iz-zigota va hokoza.

“Hayvonlar xaritasi” usuli

Bu usul hayvonlar yoki o'simliklarning tarqalish joylarini eslab qolishlari uchun qo'llaniladi. Bunda o'quvchilarga “xarita” va hayvonlar nomlari yozilgan varaqchalar beriladi. O'quvchilar hayvon yoki o'simliklarni ular taqalgan xududlarga joylashtirib chiqishadi.

Qora dengiz-lansetnik, ildizog'iz meduza

Yaponiya –Tut ipak qurti

Sirdaryo-bakra

O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrim-qoraqurt

Orol-laqqa

Zarafshon –mo'ylov baliq



Biologiya darslarida ana shunday zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlarni qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi, mustaqil o'qib o'rganish, jamoa bo'lib ish olib borish sifatlari ortadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgaralar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Biologiya o'qitish metodikasi. Toshkent 2008
2. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent 2004



БIOLOGIYA DARSLARIDA QO‘LLANILADIGAN O‘QITISH USULLARI

Tursunova Shoira Baxadirovna
Samarqand shahar 24-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
biologiya fani o‘qituvchisi Telefon raqami: 97 915 77 95

Annotatsiya. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qayd etilganidek, ta‘lim sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta‘lim tizimi orqali barkamol shaxs - fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu vazifalarni hal etish uzluksiz ta‘lim tizimining barcha, shu jumladan asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan umumta‘limda o‘qitiladigan barcha o‘quv fanlari qatori biologiyani ham zimmasiga yuklanadi.

Kalit so‘zlar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, B.E.Raykov, V.V. Vsesvyatskiy, N.M.Verzilin, V.M.Korsunskaya, biologik Sistema, olam evolyutsiyasi.

Biologiyani o‘qitishda avvalo, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish uchun biologiyaning asosiy g‘oya, nazariya, qonuniyatlari va tushunchalari, amaliyot, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida tutgan o‘rni, biologik bilimlarni o‘zlashtirishning ahamiyati bilan tanishtirish nazarda tutiladi va shu orqali ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish, insonning tabiat va jamiyatga ongli munosabatini tarkib toptirish, shuningdek kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan uzviy bog‘langan holda ta‘lim-tarbiyaviy tizim vujudga keltiriladi. Mazkur tizim o‘zida o‘quvchilar tomonidan o‘quv fanlari mazmunidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkam o‘zlashtirishlari barobarida, ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish masalalarini mujassamlashtiradi. Biologiya o‘quv kursini o‘rganish tabiatdagi biologik obyektlarning tuzilishi, rivojlanishi va hayot faoliyati qonuniyatlarini tushunishga olib keladi. Bu bilimlar o‘quvlarning ilmiy dunyoqarashi va e‘tiqodlari tizimini tashkil etadi. O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi biologik qonuniyatlarni «tabiat-insonjamiyat» munosabatlarining tarixiy rivojlanish nuqtayi nazaridan tushunishga asoslanadi. «Ilmiy dunyoqarash» tushunchasiga biologiya o‘qitish metodikasining turli manbalarida turlicha yondoshilgan. Jumladan, B.E.Raykov ilmiy dunyoqarash tushunchasini «dunyo haqidagi bilimlar majmuasi» V.V. Vsesvyatskiy «tabiatga nisbatan to‘g‘ri qarashlar majmuasi», N.M.Verzilin va V.M.Korsunskaya «insonning atrof muhitga munosabati, jamoa va jamiyatdagi xulq-atvorini aniqlaydigan ilmiy tasavvurlar va tushunchalar tizimi» deb ta‘rif berganlar. Ushbu fikrlarga didaktikaning tarixiy va mantiqiy rivojlanishning metodologik qonuniga muvofiq yondashildi, ya‘ni mazkur olimlar tadqiqot o‘tkazgan vaqtdagi fan va ijtimoiy rivojlanish darajasiga moyil bo‘lib, o‘sha davr uchun eng muhim e‘tiqod sanalgan. Hozirgi axborotlar globallashtirish va Respublikamiz mustaqillikka erishgan davrda yuqorida qayd etilgan fikrlar mazmunan eskirganligini qayd etish zarur. Pedagogik ensiklopediyada «ilmiy dunyoqarash falsafiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, xuquqiy, ahloqiy, estetik ideallar va e‘tiqodlar yig‘indisi, insonning moddiy borliq haqidagi qarashlari majmuasi hisoblanib, shular asosida inson tabiat va ijtimoiy muhitga o‘z munosabatini namoyon etadi» deb ta‘rif berilgan. Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan barcha bilimlar «Organizm-biologik sistema», «Ekologik sistemalar», «Organik olam evolyutsiyasi» yo‘nalishlari bo‘yicha umumlashtiriladi va ilmiy xulosalar chiqariladi. Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi shart-sharoitlarni vujudga keltirish zarur: 1. O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda ahamiyatga molik biologik g‘oya, nazariya va tushunchalarni chuqur ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan tushunishi, ta‘lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish yo‘llarini belgilash; 2. Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashiga asos bo‘ladigan tushunchalarning mazmuni va mohiyatini anglashlari, tabiiy hodisalarning sabablarini aniqlash va dalillash, o‘quv muammolarini hal etishda boshqa o‘quv fanlaridan o‘zlashtirgan bilimlariga asoslanishi, ya‘ni nafaqat tabiiy-matematik, balki falsafa, ijtimoiy-gumanitar o‘quv fanlari bilan fanlararo bog‘lanishlarni amalga oshirish. Xulosa qilib



aytganda, biologiyani o‘qitishda, o‘quvchilarning barkamolligini ta‘minlash, tabiat va ijtimoiy muhitga nisbatan ongli munosabatini namoyon etishi, falsafiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, axloqiy, estetik ideallar va e‘tiqodlar yig‘indisi, shuningdek, moddiy borliq haqidagi qarashlariga muayyan o‘zgartirishlar kiritish, ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida pedagogik va axborot texnologiyalardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. A.T.G‘ofurov, Tolipova J. umumiy biologiyani o‘qitishning norasmiy usul va shakllari, Toshkent 1990 y.
2. Tolipov O‘., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Fan, 2005y. 3.www.pedagog.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(22-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000